

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika ta'lim markazi**

**Fizika fani chiqur o'rganiladigan davlat
ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 3-sinfi
uchun tabiyot fanidan o'quv dasturi**

Toshkent-2015

Tuzuvchi muallif: A. Bahromov

FIZIKAGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR UCHUN 3-SINF TABIATSHUSLIK O'QUV DASTURI

Tushuntirish xati

Fizikaga ixtisoslashtirilgan maktablar yoki fizika chuqurlashtirib o'rganiladigan sinflar uchun 3-sinf "Tabiatshunoslik" dasturi quyidagi bo'limlardan iborat: "Kirish", "Tabiatda suv va havo", "Foydali qazilmalar", "Tuproq", "O'simliklar dunyosi", "Hayvonot dunyosi", "Tabiat va inson salomatligi", "Tabiat hodisalar", "Tabiatda kuch va bosim", "Tabiatni muhofaza qilish".

Dastlabki mavzu ona yurt tabiatini yoritib beradi. Shuning uchun 3-sinfda tabiatdagi havo, suv, foydali qazilmalar va tuproq singari jonsiz tabiatni o'rganishdan so'ng atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish zarur, chunki 3–4-sinfda o'rganilgan tabiatshunoslik materialini o'rganishdagi mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

"Bizni o'rab turgan havo", "Suvning xususiyatlari", "Tabiatda suv", "Yer osti boyliklari", "Tuproq" bo'limlarini o'rganish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur: tabiat va inson hayotida suv, havo, tuproq qanday o'rin tutadi; foydali qazilmalar nima uchun kerak; suv, havo, tuproqni qanday asrash lozim.

"O'simliklar dunyosi" va "Hayvonot dunyosi" bo'limlari o'quvchilarning mavsumiy o'zgarish haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishni va bir paytning o'zida o'simlik va hayvonot dunyosi bilan kengroq tanishtirishni ko'zda tutadi. Paxta, sholi, poliz ekinlari va bog' mevalarini terishning boshlanishi kabi qishloq xo'jalik ishlari madaniy o'simliklar bilan bog'liq. O'quv yili boshidan o'z yurtining o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish ekskursiya va Yer tajriba uchastkasidagi amaliy ish paytidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida (maktab joylashgan yerga qarab) olib borilishi lozim, Amaliyotsiz o'quvchilar bilimni ongli va mustahkam egallay olmaydi.

Park, bog', dala yoki suv havzasi bilan tanishish chogida maktab joylashgan joyda mos keladigani ob'yekt tanlab olinadi. Tanlab olingan muhitda aniq misollar asosida tegishli o'simliklarning turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa organizmlar bilan aloqasi, ularga insonning ta'siri o'rganiladi. Masalan, park uchun bir xildagi o'simliklar, dala uchun esa jonsiz tabiat, mavsum xususiyatlari bilan bog'liq turli sharoitlar ta'sir etgan boshqa o'simliklardir.

O'quvchilarni "Tabiat va inson salomatligi" bo'limi inson tabiatning bir bo'lagi ekanligi haqidagi fikrni shakllantirish, asosiy organlarning joylashuvi, ular bajaradigan vazifalar, ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi oddiy ma'lumotlarda to'xtalanadi. Har bir bola o'z organizmi, uning rivoji va sog'ligini saqlash uchun ularni bilishi lozimligi haqida umumiy bilimga ega bo'lishi kerak.

Shaxsiy va ijtimoiy gigiyena masalalariga va ayniqsa, bolalar o'z sog'liklarini saqlashi va mustahkamlashi uchun zarur bo'lgan tadbirlarga alohida e'tibor bermoqlari lozim.

Dasturga qo'shimcha tarzda kiritilgan "Tabiat hodisalar" bo'limida fizik hodisalar haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Jumladan, mexanik hodisalarga oid mavzuda atrofimizdagi jismlar – odamlar, avtmobillar va boshqa jismlarning yerdagi harakati, qushlar va samolyotlarning osmondagi harakati, baliq va akulalarning suvdagi harakati, jismlarning sekin, tez yoki tekis harakati, jismlarni to'g'ri chiziqli, egri chiziqli yoki aylana bo'ylab harakati haqida ma'lumotlar beriladi.

Issiqlik hodisalariga oid mavzularda havoning issiq yoki sovuqligi, muzni isitganda erishi, suvning isishi, qaynashi, bug‘ holatiga o‘tishi, qattiq jismlarning isishi, ularning issiqlik o‘tkazuvchanligi, xonadonlarni isitish, odam kiyimi issiqlikni ushlab turishi kabilar haqida ma’lumotlar beriladi. Bunda havo va suv haroratini o‘lchash tajribasi o‘tkaziladi.

Yorug‘lik hodisalariga oid mavzularda quyosh nurining tog‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi, soya hosil qilishi, lampocha, sham va gulxanning atrofni yoritish, ular ham soya hosil qilish, Quyosh tutilishi, quyosh nurining turli ranglardan tarkib topganligi, uni kamalak hosil bo‘lishida kuzatish mumkinligi haqida ma’lumotlar beriladi.

Elektr hodisalariga oid mavzularda plastmassa taraqqiyot yoki ruchkani sochga ishqalab, qog‘oz qiyqimlariga yaqinlashtirganda tortish hodisasini ko‘rsatish, bunda elektr zaryadlar hosil bo‘lish, elektr simlarda elektr zaryadlar bir tomonda boshqa tomonga yugirib yurishidan tokning hosil bo‘lishi tushuntiriladi, eng soda elektr zanjirini yig‘ish amaliy mashg‘uloti o‘tkaziladi, uydagi elektr lampocha va boshqa elektr asboblari qanday ishlashi haqida boshlang‘ich ma’lumotlar beriladi. Elektr asboblaridan foydalanganda ulardan ehtiyotlik bilan foydalanish zarurligi uqtiriladi.

“Tabiatni muhofaza qilish” bo‘limida inson va tabiat orasidagi munosabat, “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi». «Qizil kitob»ga kiritilgan o‘simliklar va hayvonlar, ularni asrash kabilarga alohida e’tibor berilishi zarur.

Fizikaga ixtisoslashtirilgan maktablar uchun 3-sinf “Tabiatshunoslik” faniga 68 soat, ya’ni oddiy maktablarnikiga qaraganda ikki baravar ko‘p dars soati ajratilgan. Ajratilgan 68 dars soatidan 10 soati qo‘shimcha bo‘lim – “Tabiat hodisalari” bo‘limini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan. Qolgan 24 soat boshqa bo‘limlarga qo‘shimcha tarzda qo‘shib berilgan. Bunda dastur va darslikdagi o‘quv materiallari kengaytirib o‘tiladi.

O'QUV DASTURI
3-sinf
(68 soat, haftasiga 2 soatdan)

Kirish (1 soat)

Tabiatshunoslik nimani o'rganadi? Tabiat. Jonli va jonsiz tabiat.

Tabiatda suv va havo (12 soat)

Yer usti suvlari. Okean va dengizlar. Daryo va ko'llar. Muzliklar. Yer osti suvlari.

Suv – hayot manbayi. Suvning ahamiyati. Suvning xususiyatlari. Ho'llash va ho'llamaslik hodisalari. Kapillarlik hodisasi. Suvni muhofaza qilish va tejash.

Tabiatda havo. Havoning tarkibi. Atom va molekula haqida boshlang'ich tushunchalar. Azot, kislorod va karbonat angidrid molekulalarining formulalari. Havoning ahamiyati. Shamol qanday paydo bo'ladi? Havoning ifloslanishi va uning oldini olish.

Ob-havo. Ob-havo nima? Havo harorati va uning o'zgarishi. Yog'inlar va ularning hosil bo'lishi. Ob-havoning mahalliy belgilari. Tabiatda suvning aylanishi.

Amaliy mashg'ulot: Suvning bug'lanishi va bug'ning suv tomchilariga aylanishini kuzatish.

Foydali qazilmalar (8 soat)

Foydali qazilmalar qayerdan olinadi? Foydali qazilma nima? Foydali qazilmalar qanday hosil bo'ladi?

Yoqilg'i sifatida ishlatiladigan foydali qazilmalar. Ko'mir, neft, tabiiy gaz, ulardan olinadigan mahsulotlar.

Qora metallar. Temirtosh rudalari: magnitli, qo'ng'ir, qizil temirtosh. Ulardan temir eritib olish. Rangli metallar: oltin, mis, aluminiy. Ulardan yasalgan buyumlar.

Qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklar. Marmartosh. Granit. Ohaktosh. Qum va gil. Ularning ishlatilishi.

Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish. Foydali qazilmalarni nima uchun tejash kerak? Foydali qazilmalarni tejash.

Tuproq (3 soat)

Tuproq tarkibi. Tuproq qanday hosil bo'lgan? Tuproqda kapillarlik hodisasi.

Tuproqning unumdorligi va ahamiyati.

O'simliklar dunyosi (12 soat)

Tabiiy o'simliklar. O'tlar. Butalar. Daraxtlar.

O'simliklarda kapillarlik hodisasi. O'simliklarni sug'orishning ahamiyati. Yorug'lik va issiqlikning o'simliklar uchun ahamiyati.

Madaniy o'simliklar. G'oz, bug'doy, sholi va makkajo'xori, ularni parvarish qilish va hosilini yig'ish.

Kartoshka. Sabzavotlar: piyoz, sabzi, karam va pomidor. Qulupnay. Ular parvarish qilish va hosilini yig'ish. Begona o'simliklar: zarpechak, g'umay, machin, salomalaykum. Ekin maydonlari begona o'tlardan tozalash.

Poliz ekinlari: tarvuz, qovun, bodring va qovoq, ularni parvarish qilish. Mevali daraxtlar. Mevali butalar. Tok.

Manzarali o'simliklar. Manzarali daraxt va butalar, ularni ko'paytirish va parvarish qilish. Gullar, ularni ko'paytirish va parvarish qilish. Maktab gulzorida gullarni ekish va parvarish qilish.

Dorivor o'simliklar: yalpiz, jag'jag', isiriq, kashnich, maymunjon, na'matak. Ularning shifobaxshlik xususiyatlari.

Hayvonot dunyosi (10 soat)

Yovvoyi hayvonlar. Yirtqichlar hayvonlar: arslon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, ularning hayoti.

O'txo'r hayvonlar. Fil, jirafa, tuya, bug'u, ularning hayot kechirishi.

Hasharotlar. Zararkunanda hasharotlar. Kolorado qo'ng'izi, karam kapalagi, chigirtka. Mart qo'ng'izi, uning hayoti. Foydali hasharotlar: asalari, xonqizi qo'ng'izi, chumoli, o'rgimchak.

Qushlar. Qushlarning tabiatdagi ahamiyati. Hasharotxo'r qushlar: chittak, jibljibon, chug'urchuq, sassiqpopishak, kakkuqush, so'fito'rg'ay. Xonaki parrandalar: tovuq, o'rdak, g'oz, kurka, ularni parvarish qilish.

Uy hayvonlari. Uy hayvonlari nima uchun boqiladi? Qoramollar, qo'ylar, otlar, ularni parvarish qilish.

Hayvonlarning xilma-xilligi. Suvda yashaydigan hayvonlar: baliqlar, delfinlar, kitlar, baqa va qurbaqa. Ozuqa zanjiri.

Tabiat va inson salomatligi (7 soat)

Odamning tuzilishi. Odam tanasi. Teri, skelet va muskullar, ularning vazifalari. Yurak va uning vazifasi. Tanada qonning harakati.

Odam miyasi. Ovqat qanday hazm qilinadi? Ovqatlar va ovqatlanish qoidalari.

Sog'lom bo'lay desangiz. Qanday nafas olamiz? O'pka va uning vazifasi. Chekishning salomatlikka ta'siri. Spirtli ichimliklarning jigarga ta'siri. Giyohvand moddalarning odam hayotiga ta'siri.

Tabiat hodisalari (10 soat)

Mexanik hodisalar. Jismlarning yerda, osmonda va suvdagi harakati.

Issiqlik hodisalari. Issiqlikning havoda, suvda va qattiq jismlarda uzatilishi. Havo va suv haroratini o'lchash.

Yorug'lik hodisalari. Yorug'likning tog'ri chiziqli bo'ylab tarqalishi. Soya. Quyosh tutilishi haqida tushuncha. Kamalak.

Elektr hodisalari. Elektr zaryad va elektr toki haqida boshlang'ich ma'lumot. Elektr asboblari va ulardan foydalanish. Elektr xavfsizlik qoidalari rioya qilish.

Tovush hodisalari. Tovush chiqaruvchi asboblari. Tovushning tarqalishi.

Amaliy mashg'ulot: Batareya, lampochka va kalitdan iborat elektr zanjirini yig'ish.

Tabiatni muhofaza qilish (3 soat)

Tabiat va inson.

Tabiat muhofazasi. "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi". «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar, ularni asrash.

O'quv yili davomida o'tilganlarni takrorlash (2 soat)